

RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR

Mamasheva Ra’no Qodirjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti, maktabgacha talim fakulteti
1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, ularning turlari, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan aqli zaif bolalarni o’zaro farqlash haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Ruhiy rivojlanishi sustlashgan, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar, tafakkur, inklyuziv ta’lim, ruhshunos, aqli zaiflik.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan- bolaning bilim, harakter, fikrlash, jismoniy, nutq jihatdan tengqurlaridan orqada qolishi.

Bunday bolalarda hissiyot, iroda sferasidagi kamchiliklar birlamchi, aqliy rivojlanishni orqada qolishi esa ikkilamchi hodisa hisoblanadi. (T.A.Vlasova, M.S.Pevzner, V.I.Lubovskiy, K.K.Mamedov, G’.B.SHoumarov, N.A.Sipina va boshqa olimlar)ning ma’lumotlariga ko’ra boshlang’ich sinf o’quvchilarining 5-8 foizini ana shunday bolalar tashkil etadi. Ruhiy rivojlanishda orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi, tug’ilish vaqtidagi, homila davrida yoki go’dakning ilk yoshidagi zararlanishlari kiradi.

Rivojlanishning orqada qolishi, susayishi deganda, ruhiy rivojlanishning bola yoshiga to’g’ri kelmasligi tushuniladi.

Bunday nomutanosiblik o’z vaqtida tashkil etilgan, mos keluvchi adekvat yordam natijasida bartaraf etilishi mumkin. Bunday hol bolalarda maktab ta’limiga tayyorlik darajasining shakllanmaganligida ko’riladi.

Klinik kuzatishlar va ruhiy tekshirishlarning ko’rsatishicha, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda iroda-hissiyot sohasi yetarli rivojlanmagan ekan. Ba’zi olimlar bunday rivojlanmaganlik ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning asosiy belgisidir degan fikrni bildirganlar. Shu bilan birga, ular ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda intellekt saqlanganligini ta’kidlaydilar.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar aqliy darajasi jihatidan asosan 2 guruhga bo’linadi:

- 1) Yengil nuqsoni bor bolalar-bular maxsus sharoitda 1-3 yil ta’lim-tarbiya olganlaridan keyin o’qishni ommaviy matabning tegishli sinfida davom ettirishi mumkin.
- 2) Ruhiy rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar-bular matabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o’qitilishi kerak. Bunday bolalar matab dasturini sog’lom tengdoshlari qatori o’zlashtira olmaydi. Ruhiy rivojlanishi

sustlashgan bolalarni ommaviy maktabda hamma qatori o'qitish ta'lif jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'rtacha o'quvchining saviyasini orqaga tortadi, yaxshi va a'lo o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yetarli darajada o'stirishga to'sqinlik qiladi.

Dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmaganligi tufayli ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar doim muvaffaqiyatsizliklarga uchrayveradi, bu narsa ularning hulq-atvorida aksariyat turli salbiy xislatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashishning turlari:

1.Somotagen-tanadagi kasalliklar

2.Psixogen-tashqi ta'sirdan keladigan psixik kasalliklar

3.Serebronal-boshdag'i kasalliklar

4.Konstitutsional- bola mакtab yoki bog'chasining biridan boshqasiga ko'chib yurishi, uzilishi natijasida kelib chiqadi.

Ruhiy rivojlanishning sustlashishi va aqli zaiflikni bir-biridan farqlash kerak.

Ularni farqlashda:

1. Piramida metodikasi qo'llaniladi yoki

2. Hissiyot va aql taqqoslanadi.

Aqli zaifning hissiyoti aqldan ustun keladi. Ya'ni u o'z hissiyotlarini birinchi o'ringa qo'yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. LOGOPEDIYA (M.AYUPOVA)

2. Logoped (QAHRAMONOVA.M)

3. Akramova,X. (2020). Mehnat darslarida aqli zaif bolalar nutqini o'stirishning o'ziga xosligi.